

EKOTURIZMNING TARIXIY SHAKLLANISH JARAYONI VA UNING TURIZMNING BOSHQA TARMOQLARI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

Yangi Asr Universiteti

Akademik bo'lim boshligi, tarix fanlari

bo'yicha falsafa doktori PhD, prof v.b

m.azizbek14051983@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ekoturizmning tarixiy shakllanish jarayoni, uning vujudga kelish omillari hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ekoturizmning turizm tizimidagi boshqa yo'nalishlar, xususan, tarixiy, madaniy, ziyorat, rekreatsion va qishloq turizmi bilan o'zaro integratsiyasi ochib beriladi. Ilmiy tahlillar natijasida ekoturizmning hududiy rivojlanish, ekologik muhofaza va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni asoslab beriladi. Maqola yakunida ekoturizmni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari va uning turizm tizimidagi ahamiyati bo'yicha xulosalar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *ekoturizm, tarixiy rivojlanish, turizm tizimi, barqaror rivojlanish, ekologik muhofaza, tarixiy, ziyorat va madaniy turizm, integratsiya.*

KIRISH

Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan eng muhim sohalardan biri turizm hisoblanmoqda. Turizmning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Ekoturizmning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish qatorida ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda tabiiy resurslarga boy, betakror o'simlik va hayvonot olamiga ega ushbu mamlakatda ushbu salohiyatni asrash va ko'paytirish maqsadida ko'plab milliy dastur va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratish bilan birga ekoturizmni rivojlantirish atrof-muhit tozaligi va musaffoligini saqlashga, aholi o'rtasida kasalliklarni kamaytirishga o'z hissasini qo'shadi" [1].

Dunyo turizmi oqimi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon yo'nalmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi asosan ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20 foizni qamrab olgan, o'sish sur'ati esa turizm industriyasining umumiy o'sish sur'atidan bir necha marotaba yuqori hisoblanadi [4]. Bu borada ekoturizmning rivojlanish jarayonlari, uning ilmiy-nazariy asoslari va iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-geografik jihatlarini ochib berish, to'plangan tarixiy tajriba

asosida O'zbekiston tabiatining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatish dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ekoturizmning tarixiy shakllanish jarayoni insoniyatning tabiatga munosabati evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlabki davrlarda tabiatdan faqat resurs sifatida foydalanish ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uni muhofaza qilish, asrab-avaylash va oqilona foydalanish g'oyalari shakllandi. Shu bilan birga, ekoturizm turizm tizimining boshqa yo'nalishlari bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Xususan, u madaniy turizm bilan tarixiy-madaniy meros obyektlarini o'rganish orqali, ziyorat turizmi bilan muqaddas tabiiy hududlar orqali, rekreatsion turizm bilan dam olish va sog'lomlashtirish jarayonlari orqali hamohanglikni ko'rishimiz mumkin. So'nggi o'n yilliklarda insoniyat oldida turgan ekologik muammolar — tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi va atrof-muhitning ifloslanishi turizmning yangi, muqobil shakllarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, ekoturizm turizmning barqaror va ekologik jihatdan mas'uliyatli yo'nalishi sifatida shakllanib, ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

Turizmning ekologik tarmog'i aslida XX asrning 70-yillaridan boshlangan. 1972 yilda Skandinaviya mamlakatlari fuqarolari uchun kitlarni tomosha qilish va ularni o'rganish maqsadida turistik mashrutlar uyushtirilgan. Ushbu turizmdan tushgan mablag' kitlarni muhofaza qilish uchun ishlatilgani ham ekoturistik mashrut sifatida e'tirof etilgan [5]. XX asrning 80-yillarida Yevropa va Amerika qit'asida tabiatdan rekreasiya maqsadlarida ekologik maqbul yo'nalishlarda foydalanish g'oyasi targ'ib etilib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy talablarni muvozanatlash-tirgan «yashil turizm», «ekologik turizm» tushunchalari paydo bo'ldi. Bu g'oya dunyoning boshqa qit'alari, mamlakatlariga ham tez tarqaldi. Shu asosda tabiatni muhofaza qiladigan, turistlarning ekologik madaniyatini oshiradigan, bir vaqtning o'zida tegishli foyda olishga yo'naltirilgan, ma'rifat tarqatish funksiyasini bajaradigan, mahalliy aholi-ning an'anaviy madaniyatiga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladigan, ularning turmush darajasi va farovonligini oshirishga imkon beradigan turizmning yangi yo'nalishi – ekologik turizm shakllandi va rivojlana boshladi. Ekoturizmning jahon miqyosida jadal rivojlanib borayotganligining yana bir sababi shundaki, turizm sohasidagi va tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro markazlar ham ekoturizmni rivojlantirishni quvvatlamoqda. Ushbu xulosalar ekoturizmning umumiy turizmga nisbatan farqlanishlariga asoslangan bo'lib, ekoturizmning asl mohiyati va mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ekoturizm - bu, turizmning tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan moslashadigan hamda tabiatning tabiiy muhitda uyg'unlashuvini targ'ib qiladigan va mahalliy aholining turmush tarzini o'zgartiruvchi maxsus sohasidir. Ekoturizmni rivojlantirishga sabab bo'ladigan asosiy omillar tabiatga sayyohat va uni muhofaza

qilishni o'zaro birlashtiradi hamda shu tariqa atrofmuhit himoyasining iqtisodiy rag'batini bo'lib xizmat qiladi. Yana bir afzalligi shundaki, u yovvoyi tabiat bilan jamiyatning turli-tuman madaniy qadriyatlarini orasidagi munosabatni yaxshiroq tushunish hamda bu haqda ko'proq axborotlar olish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston qadimdan boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lib, turizmning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi obidalar nafaqat tarixiy, balki tabiiy landshaftlar bilan uyg'un holda joylashgan. Shu sababli ekoturizm va tarixiy-madaniy turizm o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanadi. Masalan, sayyohlar tarixiy obidalarni ziyorat qilish bilan birga tog', cho'l yoki qo'riqxonalar hududlariga tashrif buyurish orqali kompleks turistik tajribaga ega bo'ladi. Bu esa turizm mahsulotining jozibadorligini oshiradi.

O'zbekistonda hozirgi kunda turizm sanoatini iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirish maqsadida turizmning barcha turlarini shu jumladan, ekoturizmni rivojlantirish borasida islohotlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov —"TODAY" gazetasiga bergan intervyusida mamlakatimizning ekoturistik salohiyati va imkoniyatlariga baho berib shunday degan edilar: — "Go'zal geografik va tabiiy shart-sharoitlar respublika hududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g'oyat qulaydi"[2]. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada kengroq rivojlantirish, bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish maqsadida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yani, 1992 yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil etildi [6]. Uning asosiy vazifasi etib mamlakatimizda turizm infrastrukturasi rivojlantirish, xorijiy sarmoyani jalb qilib zamonaviy turizm komplekslarini barpo etish, yangi turizm yo'nalishlarini ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish kabi vazifalar belgilandi. 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur qarorga ko'ra, turizmning an'anaviy tarmoqlaridan tashqari tibbiy, rekreatsiya, agro va ekoturizm yo'nalishlari bo'yicha alohida dasturlar qabul qilinishi ham belgilab qo'yilgan[3].

Ekoturizm mamlakatning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida, nafaqat xorijiy sayyohlarni, balki Vatanimizning landshafti, hayvonot va o'simlik dunyosiga boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, millatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini bog'lash, mamlakatlar va turli xalqlarning bir-birini kengroq bilish, qirilib ketish arafasida turgan noyob hayvonot va o'simlik dunyosini saqlash va ko'paytirish maqsadida qo'riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Baday-To'qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob), parvarishxonalar (Jayron "Ekomarkazi", Sayhun xo'jaligi) tarkibida va atrofida dunyo talablariga javob bera oladigan milliy tabiiy bog'larni yaratish loyihalarini ishlab chiqish, ularni amalga

oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm ob'ektlarining moddiy-texnik bazasini yaratish uchun qo'shimcha investitsiyalarni kiritishdan iborat[7].

Hozirgi kunda turizm sohasidagi tadqiqotchilar mintaqalarda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Xususan, tadqiqotchi A.Alimov, Qoraqalpog'istonning Ustyurt platosidan kelajakda ekoturizm ob'ekti sifatida foydalanish uchun barcha tabiiy imkoniyatlar mavjudligi va mazkur yo'nalishda manzilli dasturlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarurligini qayd qilgan[8]. Mamlakatimizda sayyohlik yo'nalishini barcha hududda ko'rish mumkin. Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ekoturizmni tarixiy turizm bilan birga olib borish, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qadimiy qal'alar va Xiva shahriga tashrif qilgan xorijiy sayyohlar tabiat va inson "mahsuli"ni ko'rishlari mumkin. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasiga tarixiy turizm sayohatini tashkil qilgan va tashrifi kutilayotgan turistlarga Orol dengizi bo'yi ekoturizm hududlari bo'yicha qo'shimcha turmashrutlarni kiritish orqali ekoturizmga tarixiy turizmni bog'lash imkoni yuzaga keladi. Orol dengizi bo'yi hududlarida ekoturizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berishda birinchi navbatda bu hududlarda ekoturizmni xalqaro turizm ham va ichki turizm rivojlantirishning strategik vazifalarida bularni ko'rsatish kerak. Shuningdek, Neolit davridan qolgan "Ustyurt makoni" ham noyobdir. Unda 60 ga yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy ob'ektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy, ham ekoturistik ahamiyatli bo'lib, undan qadimiy mehnat va ov qurollarini topilgan. Orol va Orolbo'yi ekoturistik rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo'lgani uchun ham, ekstremal ekoturistik ob'ekt bo'lib hisoblanadi.

Toshkent viloyatida joylashgan "Chotqol" davlat biosfera qo'riqxonasi, Ugom-Chotqol Davlat milliy bog'i, tog'li hududlardagi tosh haykallar hamda o'ziga xos tasviriy san'at galariyasi bo'lgan qoyatosh bitiklari ekoturizmni rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda[9]. Shuningdek, Jizzax viloyati Zomin tumanida joylashgan Turnako'zli chashmalar orasida Sherbuloq bulog'i sayyohlar tashrif buyuradigan manzilgohlardan biridir. Atrofi toshdan yasalgan zina va yo'lakchalardan iborat kichik g'or tubiga muzdek zilol suv sher boshi shaklini eslatuvchi toshdan sharqirab oqib tushadi. Shuningdek, bu yerlardagi arxeologik yodgorlik majmualari ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Shulardan biri, Zominsuvning o'ng qirg'og'ida joylashgan Oqtepa yodgorligi majmuasi bo'lib, X-XII asrlarga oid tarixiy buyumlar topilgan. 1987 yilda arxeologik tadqiqotlar olib borilgandan so'ng bu hudud Zomin tumani milliy bog' hududida muhofaza etiladigan ob'ektlar qatoriga kiritilgan. Zomin mahalliy va xorijlik sayyohlarni doimo o'ziga jalb etib kelgani bois, bugungi kunda bu yerda ekoturizm yo'nalishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'rikli soy sharsharasi, yoshi 1000ga yaqinlashgan "Boboyong'oq" daraxti, "Qirq qiz" kabi tabiat yodgorliklari sayyohlarni cheksiz hayratga solidi[10].

Ekoturizmni boshqa turizm bilan bog'lab olib boriladigan hududlardan yana biri Nurota ekoturistik rayoni o'zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 mingga bo'lgan Nurota tog' yong'oqzor-meva qo'riqxonasi mavjud [11]. O'zbekiston islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lib, ziyorat turizmi qadimdan rivojlangan. Muqaddas qadamjolar ko'pincha tabiiy muhit — tog'lar, buloqlar yoki muqaddas deb e'tirof etilgan landshaftlar bilan bog'liq. Masalan, ziyoratchilar nafaqat diniy maskanlarga, balki ularni o'rab turgan tabiiy hududlarga ham tashrif buyuradilar. Bu holat ekoturizm elementlarining ziyorat turizmi bilan uyg'unlashuvini ko'rsatadi.

XULOSA

Ekoturizm turizm tizimining boshqa yo'nalishlari bilan uzviy va o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Xususan, u tarixiy-madaniy turizm bilan meros obyektlarini tabiiy muhit bilan uyg'un holda o'rganishda, ziyorat turizmi bilan muqaddas tabiiy maskanlar orqali, rekreatsion turizm bilan dam olish va sog'lomlashtirish faoliyatida, qishloq turizmi bilan esa mahalliy turmush tarzini aks ettirishda integratsiyalashadi. Ushbu o'zaro aloqadorlik ekoturizmning kompleks va ko'p funksiyali xususiyatini namoyon etadi. O'zbekistonda ekoturizm tarixiy, madaniy, ziyorat va boshqa turizm turlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanayotgan kompleks tizimdir. U nafaqat tabiiy muhitni muhofaza qilish, balki mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosini samarali foydalanish va turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi // <https://president.uz/uz/lists/view/781>.
2. Karimov I.A. Today gazetasiga bergan intervyusi // Xalq so'zi, 2007 yil 26 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori// PQ-3217-son 2017 yil 16 avgust. Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 17 avgust №162 (6856).
4. Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich. Qashqadaryo viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy muzeylarning o'рни. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi 23-mart, 2021-yil. 101-bet.
5. Matmurodov M. Ekoturizm. Maruzalar matni. – Nukus, 2008. – 81 b.
6. O'zMA, M-141-fond, 1-ro'yhat, 1-yig'ma jild, 5-varaq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni 1992 yil 27 iyul. № UP-447.
7. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi // Ekologiya xabarnomasi.–№ 6.– Toshkent, 2007.–B.13.

8. Alimov A.K. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2018. – 24 b.
9. Hidoyatov B. Ekoturizmni-rivojlantirish yo'lida. // Toshkent haqiqati, 2014 yil 17 sentyabr. №75 (12711).
10. Ergashev T. Zomin ohanrabosi. // Xalq so'zi, 2018 yil 28 iyul, №155 (7113).
11. Shomurotova N. O'zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari, g.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2011. – 22 b.
12. Muminov, A. Z. (2018). DEVELOPMENT OF ECOLOGIC TOURISM IN UZBEKISTAN. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(3), 123-126.
13. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A. Z. (2022). Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1730-1739.